BUDAPESHTNING MARKAZIY OSIYOGA QIZIQISHI: “SHARQQA OCHILISH” STRATEGIYASI MOHIYATI, MAQSADLARI VA SHAKLLANISH OMILLARI

Muitov Davron
siyosiy fanlar nomzodi, professor
Obidov Sanjar
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Ushbu Maqolada zamonaviy Vengriyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy strategiyasini, ayniqsa 2010-yildan buyon amalga oshirilayotgan “Sharqqa ochilish” (Eastern Opening policy/ Keleti Nyitás) siyosati doirasida tahlil qiladi. Vengriya uchun Markaziy Osiyo eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, energiya xavfsizligini mustahkamlash hamda Yevropa bilan Osiyo o‘rtasidagi logistika va tranzit koridorlarida muhim bo‘g‘in maqomini egallash imkonini beradi. Maqolada Budapeshtning Markaziy Osiyoga qiziqishini kuchaytiruvchi omillar – tezkor iqtisodiy o‘sish, energiya resurslari, “O‘rta koridor”ning strategik ahamiyati va turkiy davlatlar bilan hamkorlik – ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar – Vengriya, Sharqqa ochilish siyodati, Markaziy Osiyo, iqtisodiy hamkorlik, investitsiyalar.

Аннотация. В данной работе анализируется экономическая стратегия современной Венгрии в отношении государств Центральной Азии, в частности в рамках политики “Открытие на Восток” (Eastern Opening Policy / *Keleti Nyitás*), реализуемой с 2010 года. Для Венгрии Центральная Азия представляет собой возможность диверсификации экспортных рынков, привлечения иностранных инвестиций, укрепления энергетической безопасности, а также приобретения статуса важного звена в логистических и транзитных коридорах между Европой и Азией. В статье рассматриваются ключевые факторы, усиливающие интерес Будапешта к Центральной Азии, включая высокие темпы экономического роста региона, наличие энергетических ресурсов, стратегическое значение Среднего коридора и сотрудничество с тюркскими государствами.

Ключевые слова: Венгрия, политика “Открытие на Восток”, Центральная Азия, экономическое сотрудничество, инвестиции.

DOI: 10.5281/zenodo.24240498

Abstract. This analyses modern Hungary’s economic strategy towards the countries of Central Asia, particularly within the framework of the *Eastern Opening Policy* (*Keleti Nyitás*), implemented since 2010. For Hungary, Central Asia offers opportunities to diversify export markets, attract foreign investment, strengthen energy security, and establish itself as a key link in logistics and transit corridors connecting Europe and Asia. The article examines the key factors driving Budapest’s growing interest in Central Asia, including the region’s rapid economic growth, energy resources, the strategic importance of the Middle Corridor, and cooperation with Turkic states.

Keywords: Hungary, Eastern Opening Policy, Central Asia, economic cooperation, investment.

Kirish. Vengriya va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi munosabatlar Sovet davrida umumittifoq iqtisodiy va siyosiy tizim doirasida shakllangan bo‘lsa-da, ular mustaqillik yillarida ikki tomonlama diplomatiya, savdo va investitsiya hamkorligiga aylangan. Vengriya Markaziy Osiyo respublikalarining mustaqilligini erta tan olgan davlatlardan biri bo‘lib, Qozog‘iston, O‘zbekiston [1] va boshqa mintaqa davlatlari bilan mustaqil hamkorlik aloqalarini boshlagan.

Hozirgi bosqichda Budapeshtning Markaziy Osiyoga qiziqishi 2010-yilda e’lon qilingan “Sharqqa ochilish” strategiyasi bilan sezilarli kuchaydi. Bu siyosat Vengriya uchun eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish, investitsiyalarni jalb etish va Yevropa Ittifoqidan tashqaridagi tez o‘sayotgan iqtisodiyotlar bilan aloqalarni rivojlantirish vositasi hisoblanadi.

Rossiya–Ukraina urushi esa Markaziy Osiyoning Vengriya iqtisodiy strategiyasidagi o‘rnini yanada oshirdi. Urush sharoitida energiya xavfsizligi, ta’minot zanjirlarining barqarorligi va Rossiyadan chetlab o‘tuvchi transport yo‘nalishlari muhim ahamiyat kasb etgani bois Kaspiy va Markaziy Osiyo orqali boradigan “O‘rta koridor” Vengriya uchun strategik ahamiyatga ega bo‘ldi. Shu sababli Vengriya Markaziy Osiyoni faqat savdo hamkori emas, balki Yevropa bilan Osiyoni bog‘lovchi logistika, tranzit va energiya hamkorligi markazi sifatida ko‘rmoqda [2].

Vengriya mintaqa davlatlari bilan hamkorlikni har bir mamlakatning salohiyatiga qarab rivojlantirmoqda: eng faol aloqalar Qozog‘iston va O‘zbekiston bilan o‘rnatilgan bo‘lsa, Turkmaniston bilan asosan energiya va transport, Qirg‘iziston va Tojikiston bilan esa ta’lim, qishloq xo‘jaligi hamda savdo yo‘nalishlarida hamkorlik kengayib bormoqda. Shu bois Markaziy Osiyo Vengriya uchun iqtisodiy diversifikatsiya, energiya va logistika xavfsizligi hamda Yevropa–

Osiyo o‘rtasidagi ko‘prik maqomini mustahkamlash imkonini beruvchi strategik mintaqaga aylanmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda Vengriyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy hamkorligi va “Sharqqa ochilish” siyosatining asosiy yo‘nalishlarini o‘rganish maqsadida ushbu sohaga doir ilmiy adabiyotlar, hujjatlar tahlili va qiyosiy tahlil usullaridan foydalaniladi. Tadqiqotning axborot bazasini mavzuga oid ilmiy maqolalar, tahliliy hisobotlar, rasmiy hujjatlar hamda xalqaro tashkilotlarning tegishli materiallari tashkil etadi. Manbalar tahlili orqali Vengriyaning Markaziy Osiyoga nisbatan iqtisodiy manfaatlari, investitsiyaviy hamkorlik, energetika xavfsizligi va transport-tranzit yo‘nalishlaridagi ustuvorliklari aniqlanadi. Shuningdek, qiyosiy tahlil yordamida Vengriya va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari hamda o‘zaro manfaatlari o‘rganiladi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot mavzusini tizimli tahlil qilish va asoslangan xulosalar shakllantirish imkonini beradi.

Asosiy bo‘lim. Vengriyaning “Sharqqa ochilish” strategiyasi: mohiyati, maqsadlari va shakllanish omillari. Vengriyaning “Sharqqa ochilish” (*Keleti Nyitás*) strategiyasi 2010-yilda Viktor Orban boshchiligidagi hukumat tomonidan e’lon qilingan tashqi iqtisodiy va siyosiy yo‘nalish bo‘lib, uning asosiy mohiyati Vengriya iqtisodiy aloqalarini faqat Yevropa Ittifoqi bozorlari bilan cheklab qo‘ymasdan, Osiyo, Kavkaz, Turkiya va Markaziy Osiyo davlatlari bilan kengaytirishdan iborat. Strategiya dastlab “global ochilish” nomi bilan qabul qilingan, keyinchalik “Sharqqa ochilish” deb atalgan va Vengriyani Yevropa bilan Osiyo o‘rtasidagi iqtisodiy hamda logistik ko‘prikka aylantirishga qaratilgan[3]. Strategiyaning shakllanishiga 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz muhim ta’sir ko‘rsatdi. Inqiroz Vengriyani tashqi savdo va investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilish, ayrim yirik hamkorlarga haddan tashqari bog‘liqlikni kamaytirish zaruratiga olib keldi. Shu bois Budapesht tez o‘sayotgan Osiyo bozorlari, Markaziy Osiyo davlatlari, Turkiya, Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya va Fors ko‘rfazi mamlakatlari bilan savdo hamda investitsiya aloqalarini rivojlantirishni ustuvor vazifa deb belgiladi[4].

“Sharqqa ochilish” strategiyasining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Vengriya eksportining geografik va tarmoq tarkibini diversifikatsiya qilish;
- Markaziy Osiyodan Uzoq Sharqqacha bo‘lgan mintaqalardan xorijiy investitsiyalarni jalb etish;
- Kichik va o‘rta biznes subyektlarini yangi Osiyo bozorlariga chiqarish hamda ularning eksport imkoniyatlarini kengaytirish;

- Vengriyani Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi transport-logistika hamda tranzit markazi sifatida shakllantirish;
- Turkiy davlatlar bilan tarixiy-madaniy yaqinlik asosida siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish[5].

Bu strategiyada Markaziy Osiyo alohida o‘rin tutadi. Chunki mintaqa davlatlari Vengriya uchun yangi eksport bozorlari, energiya resurslari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va Yevropa–Osiyo tranzit yo‘nalishlari bo‘yicha muhim hamkor hisoblanadi. Ayniqsa, Qozog‘iston va O‘zbekiston bilan hamkorlik “Sharqqa ochilish” siyosatining amaliy natijalari sifatida qaraladi, chunki Vengriya bu davlatlar bilan strategik hamkorlik, investitsiya va logistika sohalarida aloqalarni izchil kengaytirmoqda.

Markaziy Osiyo Vengriya iqtisodiy strategiyasida: “O‘rta koridor” omili. Markaziy Osiyo Vengriyaning zamonaviy iqtisodiy strategiyasida, ayniqsa “O‘rta koridor” yoki rasmiy nomi bilan Trans Kaspiy xalqaro transport yo‘nalishi orqali muhim o‘rin egallamoqda. Bu yo‘nalish Xitoy va Markaziy Osiyodan Kaspiy dengizi, Ozarbayjon, Gruziya va Turkiya orqali Yevropaga boruvchi ko‘p tarmoqli transport koridorini tashkil etadi. Rossiya–Ukraina urushi sharoitida Rossiyadan o‘tuvchi an’anaviy shimoliy yo‘nalishlarga bog‘liqlikni kamaytirish zarurati ortgani bois “O‘rta koridor” Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi strategik muhim alternativ yo‘lga aylandi. Vengriya uchun “O‘rta koridor” nafaqat tranzit yo‘nalishi, balki Budapeshtni Yevropadagi yirik logistika markaziga aylantirish imkonini beruvchi omil hisoblanadi.

Markaziy Osiyo davlatlari esa bu jarayonda yo‘lning muhim bo‘g‘inlari sifatida qaralmoqda. Qozog‘iston, O‘zbekiston, Turkmaniston va Qirg‘iziston Xitoydan Yevropaga boradigan yuk oqimlarini ta’minlovchi asosiy hududlar bo‘lib, ularning transport infratuzilmasini rivojlantirish butun koridor samaradorligini oshiradi. 2040-yilga qadar ushbu startegik hamkorlik natijasida YaIM 3.3% ga va 2 milliondan ziyod yangi ish o‘rinlari yaratilish ko‘zda tutilgan[6]. Turkmanistonning Turkmanboshi porti ham Kaspiy dengizi orqali yuk tashishda muhim logistika markazi sifatida qaralmoqda.

Vengriya nuqtai nazaridan “O‘rta koridor”ning rivojlanishi bir nechta iqtisodiy imkoniyatni ochadi:

- Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi yuk tashishda Vengriyaning tranzit va logistika ulushi oshadi.
- Budapesht atrofida yangi intermodal terminal va ombor infratuzilmasi rivojlanadi.
- Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo, transport va investitsiya hamkorligi chuqurlashadi.

- Vengriya “Sharqqa ochilish” strategiyasini amaliy loyihalar orqali amalga oshirish imkoniga ega bo‘ladi.

Vengriya va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik dinamikasi. Vengriya bilan Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik “Sharqqa ochilish” strategiyasi doirasida asta-sekin kengayib bormoqda. Hozirgi bosqichda eng yirik va eng rivojlangan hamkorlik Qozog‘iston bilan o‘rnatilgan bo‘lsa, O‘zbekiston bilan savdo va investitsiya aloqalari tez o‘sish tendensiyasiga ega. Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikiston bilan hamkorlik hajman kichikroq bo‘lsa-da, transport-logistika, energiya, qishloq xo‘jaligi va farmatsevtika yo‘nalishlarida istiqbolli rivojlanmoqda.

Qozog‘iston Vengriyaning Markaziy Osiyodagi eng yirik iqtisodiy hamkori hisoblanadi. 2024-yilda ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro savdo 195,8 mln. AQSh dollariga yetib, 2023-yildagi 182,5 mln. dollarga nisbatan 4,4 foizga oshgan. 2025-yilning ilk sakkiz oyida savdo aylanmasi 22,1 foizga oshib, 164,6 mln. dollardan oshgan. Vengriyaning Qozog‘iston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalari 370 mln. dollardan oshgan bo‘lib, hozirda energiya, mashinasozlik, qishloq xo‘jaligi va logistika sohalarida umumiy qiymati taxminan 700 mln. dollar bo‘lgan 16 qo‘shma loyiha amalga oshirilmoqda. Ikki davlat savdo aylanmasini kelgusi yillarda 1 mlrd. dollarga yetkazishni maqsad qilgan[7].

O‘zbekiston bilan hamkorlik so‘nggi yillarda tez o‘sishni ko‘rsatmoqda. 2024-yilda ikki davlat o‘rtasidagi savdo aylanmasi taxminan 125 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 32 foizga oshgan. 2025-yilda esa o‘zaro savdo 41,7 foizga o‘sib, 117,4 mln. dollarga yetgan. O‘zbekistonda venger kapitali ishtirokidagi 17–20 korxona faoliyat yuritmoqda. Eng yirik loyihalar qatoriga Sirdaryo viloyatida 165 mln. dollarlik parrandachilik klasteri va “Yangi Toshkent”da 59 mln. dollarlik suv tozalash inshooti kiradi[8]. Bundan tashqari Vengriyaning “Gedeon Richter” transmilliy farmastevtika kompaniyasi ham 25 yildan buyon O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayapti [9].

Qirg‘iziston bilan savdo hamkorligi 2024-yilda keskin o‘sdi. Ikki davlat o‘rtasidagi tovar aylanmasi 2024-yilda 71 mln. AQSh dollariga yetib, 2023-yilga nisbatan 152 foizga oshgan. 2010–2024-yillar oralig‘ida o‘zaro savdo beshta barobardan ortiq oshgan. Vengriya Qirg‘iziston bilan 16 mln. dollarlik qo‘shma rivojlantirish jamg‘armasini tuzgan; ushbu jamg‘arma mashinasozlik va chorvachilik loyihalarini moliyalashtirgan, gidroenergetika loyihasi esa rejalashtirilmoqda. Hamkorlik ayniqsa farmatsevtika, oziq-ovqat qayta ishlash va urug‘lik sohalarida faol rivojlanmoqda[10].

Turkmaniston bilan iqtisodiy aloqalar asosan energiya, transport, qishloq xo‘jaligi va suv xo‘jaligi sohalariga qaratilgan. 2024-yilda Vengriyaning

Turkmanistonga eksporti 7,5 mln. AQSh dollariga yaqinlashib, 2023-yilga nisbatan 17 foizga oshgan. 2025-yilning ilk yetti oyida esa Vengriya eksporti 3 mln. dollardan oshgan. Ikki davlat o‘rtasidagi hukumatlararo komissiya savdo, energiya, transport, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash va ta’lim yo‘nalishlarida hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan[11].

Tojikiston bilan Vengriya o‘rtasidagi savdo hajmi boshqa Markaziy Osiyo davlatlariga qaraganda ancha kichik. 2024-yilda ikki davlat o‘rtasidagi umumiy tashqi savdo hajmi 2,2 mln. AQSh dollarini tashkil etgan. Boshqa manba ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda tovar aylanmasi 2,8 mln. dollarni tashkil etgan bo‘lib, Vengriya eksportida farmatsevtika mahsulotlari, Tojikiston eksportida esa mis mahsulotlari yetakchilik qilgan. Shu bois bu yo‘nalish hozircha savdo va kichik investitsiya loyihalari darajasida qolmoqda, biroq ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligi sohalarida hamkorlik salohiyati mavjud[12].

Natijalar muhokamasi. Tadqiqot natijalari Vengriyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy hamkorligi “Sharqqa ochilish” strategiyasi doirasida izchil kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Bu strategiya Vengriya uchun eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish, investitsiyalarni jalb etish va Yevropa Ittifoqidan tashqaridagi bozorlar bilan aloqalarni kuchaytirish vositasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Rossiya–Ukraina urushi esa energiya xavfsizligi va ta’minot zanjirlari masalalarini kuchaytirib, Kaspiy va Markaziy Osiyo orqali boradigan “O‘rta koridor”ning ahamiyatini oshirdi. Hamkorlik hajmi mintaqa davlatlari bo‘yicha har xil: Qozog‘iston eng yirik hamkor bo‘lib, 2024-yilda o‘zaro savdo 195,8 mln. dollarga yetgan. O‘zbekiston bilan savdo 125 mln. dollarga yetib, 32 foizga oshgan. Qirg‘iziston bilan savdo 71 mln. dollarga yetgan bo‘lsa, Turkmaniston bilan eksport va energiya hamkorligi, Tojikiston bilan esa kichik hajmdagi savdo hamkorligi rivojlanmoqda. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo bilan savdo hajmi Vengriyaning umumiy tashqi savdosidagi ulusiga nisbatan hali kichik bo‘lib, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish zarur.

Xulosa. Vengriyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy hamkorligi “Sharqqa ochilish” strategiyasi asosida rivojlanib, Rossiya–Ukraina urushi sharoitida yanada dolzarb bo‘ldi. Markaziy Osiyo Vengriya uchun yangi eksport bozorlari, energiya resurslari va Yevropa–Osiyo tranzit yo‘nalishlari bo‘yicha strategik mintaqa hisoblanadi. Qozog‘iston yetakchi hamkor bo‘lsa, O‘zbekiston eng tez o‘sayotgan hamkor sifatida ajralib turadi; Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikiston bilan hamkorlik ham kengaymoqda. Kelgusida “O‘rta koridor” infratuzilmasini rivojlantirish, logistika xarajatlarini kamaytirish va qo‘shma investitsiya loyihalarini ko‘paytirish Vengriya bilan Markaziy Osiyo o‘rtasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Robert Lansing Institute, "How Hungary's Outreach to Central Asia Risks Undermining EU sanction on Russia" June 5, 2025. https://lansinginstitute.org/2025/06/05/how-hungarys-outreach-to-central-asia-risks-undermining-eu-sanctions-on-russia.

2. Gabriela Greilinger, "Hungary's Eastern Opening Policy as a Long-Term Political-Economic Strategy". Journal of AIES, 04.2023. AIES-Fokus-2023-04.pdf.

3. Kanat Maxanov, "Политика "Восточного открытия" и сотрудничество венгрии с Тюркоязычными государствами" Eurasian Research University. 21 May, 2024. https://eurasian-research.org/ru/publications/understanding-the-overlap-of-hungarys-eastern-opening-and-cooperation-of-turkic-states.

4. Balázs Orbán, "A Model For Connectivity: Hungary's Strong Bond with the Turkic World". Baku Dialogues Policy Perspectives On The Silk Road Region". 2026 https://bakudialogues.idd.az/articles/a-model-for-connectivity-12-07-2023.

5. Jacek Świder, "Węgry patrzą na Wschód" (Vengriya Sharq tomon yo'l izlamoqda). Journal Interia Biznes, 20 Noyabr, 2020. Ushbu link orqali mavjud https://biznes.interia.pl/gospodarka/news-wegry-patrza-na-wschod,nId,5650811.

6. World Bank Group, "Trans-Caspian Transport Corridor Investments Could Spur Growth and Create Millions of Jobs Across Europe and Central Asia" 28-Sentabr, 2026. https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2026/09/28/trans-caspian-transport-corridor-investments-spur-growth-and-create-millions-jobs.

7. Абай Отар, "Kazakh-Hungarian Cooperation: Bridging History and Future". Elkz News. 19 May, 2025. https://el.kz/en/kazakh-hungarian-cooperation-bridging-history-and-future_400024219.

8. Bekhzodbek Paygamov , "Uzbekistan-Hungary Trade and Economic cooperation: Current Trend and Future Prospects" Hungarian Conservative Magazine, 3 Iyun 2025, https://www.hungarianconservative.com/articles/culture_society/uzbekistan-hungary-trade-economic-cooperation-prospects.

9. Sardor Ali, "Vengriya O'zbekistonga Nima Uchun Kerak?" Siyosiy tahlil, Xabar.uz 25 Avgust 2023, https://xabar.uz/uz/mualliflar/sardor/vengriya-ozbekistonga-nima?ysclid=mvmkhl66wh830308152.

10. Hungary Today, "Hungary Launches 16 mln. dollar Development Fund with Kyrgyzstan" 5 Noyabr 2021, https://hungarytoday.hu/peter-szijjarto-kyrgyzstan-hungary-development.

11. Magyarorszag Kormanya Government website, "Asgabat in was held in the Hungarian–Turkmenistan economic cooperation Intergovernmental Commission 6. Session" 2 Oktabr 2025, https://kormany.hu/hirek/asgabatban-

kerult-megrendezesre-a-magyarturkmen-gazdasagi-egyuttmukodesi-kormanykozi-bizottsag-6-ulese.

12. Министерство иностранных дел Таджикистана, "Отношения Таджикистана с Венгрией" 17 Yanvar 2024, https://mfa.tj/ru/main/view/163/otnosheniya-tadzhikistana-s-vengriei.